
Xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashining oltinchi chaqiriq oltinchi yettinchi sessiyasi bo'lib o'tdi

Bugungi sessiyada shahardagi sektor rahbarlari, shahar sudi raislari hamda kun tartibiga kiritilgan masalaga dahldor tashkilot va muassasalar rahbarlari ishtirok etdi. Sessiya ishini Farg'ona shahar hokimi, xalq deputatlari shahar Kengashi raisi Vosiljon Nazarov ochdi va olib bordi.

Sessiya kun tartibida quyidagi masalalar ko'rib chiqildi:

Kun tartibidagi dastlabki masala - Farg'ona shahrida kam ta'minlangan, moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalarni ijtimoiy qo'llab quvatlash maqsadida "Temir daftar"ga kiritish yuzasidan Farg'ona shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi Mo'minov Bobirjon Xolmamadjon o'g'lining ma'ruzasi tinglandi. Kun tartibidagi navbatdagi masala - Farg'ona shahridagi moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvatlash maqsadida "Yoshlar daftari" jamg'armasi hisobidan mablag' ajratish yuzasidan Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona shahar bo'limi boshlig'i Akramov Ahadjon Abduvali o'g'lining ma'ruzasi tinglandi. Kun tartibidagi navbatdagi masala - O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi Farg'ona shahar bo'limi tomonidan 2022 yil olti oyi davomida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan Majburiy ijro byurosi Farg'ona shahar bo'limi boshlig'i Toshboltayev Sanjar Isomiddinovichning maruzasi tinglandi.

Shundan so'ng jinoyat ishlari bo'yicha Farg'ona shahar sudi raisi Abdubannobov Mahkamjon Murodilovich, Farg'ona tumanlararo ma'muriy sudi raisi Ortiqov Elmurodjon Mirzarahimovich, Farg'ona tumanlararo iqtisodiy sudi raisi Mamatojiev Tohirjon Tursunaliyevich va Fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudi raisi Oripov Ulug'bek Nazirovichlarning 2022 yil birinchi yarim yillikda amalga oshirgan ishlari bo'yicha axborotlari eshitildi.

Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari tomonidan muhokama, taklif va mulohazalardan so'ng qaror loyihasi deputatlar tomonidan bir ovozdan qabul qilindi.

2022-08-03 18:01:23